

**ABDUXOLIQ G'IJDUVONIY HAYOTI VA ILMUY-MA'NAVIY MEROSI
TARIXIY MANBALARDA YORITILISH**

*Sayfidinova Zarina Nabijon qizi
O'zbekiston Xalqaro Islom Akademiyasi
2-kurs magistranti
sayfidinovazarina042@gmail.com*

Anotatsiya

Mazkur maqolada Abduxoliq G'ijduvoniyning hayoti, faoliyati hamda uning ilmiy-ma'naviy merosi tarixiy manbalar asosida tahlil qilinadi. Xususan, u yashagan davrning ijtimoiy-siyosiy sharoiti, tasavvufiy qarashlari va Buxoro atrofidiagi tariqatlar bilan bog'liqligi yoritiladi. Maqolada G'ijduvoniya oid asarlar, undan keyingi avlod so'fiylari tomonidan aytilgan guvohliklar, manbashunoslik yondashuvi bilan ko'rib chiqilib, uning Naqshbandiya tariqatining shakllanishidagi o'rni baholanadi. Tadqiqotda tarixiy manbalar asosida G'ijduvoniy merosining zamonaviy ruhiy-ma'naviy hayotdagi ahamiyati ham ochib beriladi.

Kalit so'zlar: Tasavvuf, tariqat, xojagon, mutasavvif, falsafa, etika, ijtimoiy masalalar, bag'rikenglik

Annotation

This article analyzes the life, activities, and scholarly-spiritual legacy of Abdukholiq Gijduvani based on historical sources. In particular, it examines the socio-political context of his time, his Sufi views, and his connections with Sufi orders around Bukhara. The article explores the works attributed to Gijduvani, as well as testimonies by later generations of Sufis, using a historical-source-based approach. His role in the formation of the Naqshbandi order is also assessed. The study highlights the contemporary relevance of Gijduvani's legacy in today's spiritual and moral life.

Key words: : Sufism, religion, Khojagon, mystic, philosophy, ethics, social issues, tolerance

Tasavvuf — islom dini doirasida shakllangan va insonning Allohga bo'lgan muhabbatini, qalb pokligini, ma'naviy kamolotni asosiy maqsad qilib olgan ruhiy va axloqiy yo'nalishdir. Uning asosiy g'oyasi – nafshi poklash, dunyoviy mayillardan voz kechish va Robbiga ixlos bilan bog'lanishdir. Tasavvuf ahli, ya'ni sufiyalar, shariat amrlarini puxta ado etish bilan birga, botiniy jihatdan ham o'zini tarbiyalashga alohida e'tibor beradilar.

Tasavvuf o'z rivoji davomida turli maktab va tariqatlar shaklida namoyon bo'lib, ularning har biri ruhiy kamolotga erishish uchun maxsus usullar va tarbiyaviy

yo'llarni ishlab chiqqan. Ayniqsa, Mavarounnahr va Xuroson mintaqalarida tasavvuf maktablari keng tarqalib, islom ma'naviyatining rivojiga beqiyos hissa qo'shgan.

Tasavvuf tom manodagi poklanish bo'lib bu yo'ldagi kishi insonga xos bo'lgan barcha yomon xislatlardan poklanishi eng yaxshi xislatlar bilan bezanishi, komil insonga aylanishi oxir oqibatda Xudo roziliginini topib unga yetishishidir.

Abdulholiq G'ijduvoniy ana shunday tasavvufiy an'analarni davom ettirgan ulug' mutasavviflardan biri bo'lib, o'zining chuqur ilmiy merosi va ruhiy tajribalari orqali islom tasavvufining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan.

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy ismi va merosi yurtimizda keng tanilgan. Ayniqsa, 2003 yilda G'ijduvon shahrining 900 yillik to'y marosimlari munosabati bilan u kishining hayoti va faoliyatiga bo'lgan qiziqish yanada oshdi. Shuni inobatga olib, Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy kabi yirik mutasavvif olimning hayoti va ilmiy merosini o'rganish alohida ahamiyat kasb etadi.

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy (taxallusi: Xoja Jahon) o'z davrining yetuk mutasavvifi, ilohiyotshunosi va ma'naviy rahnamosi sifatida Islom olamida chuqur hurmat qozongan shaxsdir. Uning ilmiy-ma'naviy merosi tasavvuf tarixida muhim o'rinni egallaydi. Abduxoliq G'ijduvoniy, asosan, o'zining ruhiy yetukligi, ta'limotining salohiyati va shogirdlari orqali mashhur bo'lib, nafaqat Mavarounnahr, balki keng musulmon dunyosida ham tanilgan.

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy 1103 yilda Buxoro viloyatining G'ijduvon shahrida tavallud topgan.. Nasabidan kelib chiqib, otasi — Xoja Abduxamil Rumi Rahmatullohi Alayh ham o'z zamonasi ilm-fani va diniy hayotida muhim shaxs bo'lgan. Rumi naslidan kelib chiqqan otasi zamonining mashhur imomi sifatida tanilgan va diniy hayotda faol ishtirok etgan. Uning otasi Abdujamil asli turkiy qabilalardan bo'lib, zamon hodisalari tufayli Buxoroga ko'chib kelgan Yosh Abduxoliq ilm olish maqsadida o'z zamonasining yetuk olimlaridan biri, Sadriddin nomli mudarrisdan ta'lim olgan. Yoshligidan ilmga va ma'naviyatga chanqoq bo'lgan G'ijduvoniy, yigirma ikki yoshida Buxoroda mashhur tasavvuf piri Xoja Yusuf Hamadoni bilan uchrashadi. Ushbu uchrashuv uning hayotida tub burilish yasaydi va tasavvuf yo'liga kiradi. U bu yo'lida katta kamolot va yetuklikka erishadi.

Abduxoliq G'ijduvoniy yoshligidan Qur'oni Karimni yod olish va diniy ilmlar asoslarini mukammal o'zlashtirishga kirishgan. To'qqiz yoshida Qur'onne xatm qilgani haqida manbalar xabar beradi. Yoshligidan boshlab u zikr majlislarida faol qatnashgan va ruhiy tarbiyada chuqur kamol topgan.

Uning dastlabki ustozlaridan biri tafsir ilmining yirik vakili Imom Sadriddin bo'lgan. Imom Sadriddin qo'lida Qur'on tafsirini chuqur o'rganib, nafaqat zohiriyl, balki botiniy ma'nolarni anglashda yetuk mahoratga erishgan. Ayniqsa, "Udu'Rabbakum tadorru'an va xufyatan" ("Parvardigoringizni iltijo va yashirin tarzda duo

qiling") oyatining ta'limoti asosida, G'ijduvoniy zikrni baland ovozda emas, balki qalbda va sirla tarzda ado etishni ustuvor deb bilgan.

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy ilm va ma'rifatni faqat kitobiy bilimlar bilan emas, balki Allohdan ato etiladigan laduniy ilm bilan ham bog'lagan. Unga ko'ra, haqiqiy bilim sabr, fidokorlik, to'g'ri niyat va Alloh taolo marhamati orqali nasib etadi. Laduniy ilmga erishish, uning fikricha, insonning ichki pokligi va ruhiy yetukligi bilan chambarchas bog'liqdir.

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy nafaqat o'zining zamonasida, balki undan keyingi asrlarda ham tasavvuf va diniy-ma'naviy hayot rivojiga beqiyos hissa qo'shgan allomalardan biri sifatida e'tirof etiladi.

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy o'z hayotini xalqni Haq yo'lliga chaqirish, haqiqat va ma'naviyatni tarannum etishga bag'ishladi. U "zikr-i ravo" usulini joriy etdi, ya'ni zikrni baland ovozda emas, dildan, ichdan takror qilishni targ'ib qildi. Uning ta'limotida xotirjamlik, ichki tozalikka intilish va Allohga samimiy bog'lanish muhim o'rin tutadi.

Abdulxoliq G'ijduvoniy yoshligidan ilmga qiziqqan, Buxoro ulamolari safida yetuk olim va murshidlar bilan muloqotda bo'lgan. Ayniqsa, Imom Sadriddin kabi zamonasining mashhur mutasavviflaridan ta'lim olgani haqida ma'lumotlar mavjud. U diniy ilmlar qatori, tasavvufga doir chuqur tafakkurga ega bo'lgan va bu boradagi fikrlarini amaliyot bilan uyg'unlashtirgan.

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy butun hayotini Alloh taologa ibodat va tasavvufiy hayotga bag'ishlagan buyuk mutasavvifdir. U farz va nafl amalarga e'tibor berib, ruhiy tarbiyada sabr va tavozu'ni asosiy mezon sifatida ko'rgan. Yoshligidan Qur'oni Karimni yod olishi, diniy ilmlarni chuqur o'rganishi uning keyingi faoliyati uchun mustahkam zamin yaratgan. G'ijduvoniy ilmlar sirlarini egallashda, avvalo, o'z zamonasining yetuk ulamolaridan biri - Xoja Imom Sadriddin bilan suhbatda bo'lib, tafsir ilmi va ruhiy kamolot saboqlarini mukammal o'zlashtirgan. U tafsir ilmidan tashqari, Alloh tomonidan ato etilgan "laduniy ilm" haqida ham chuqur bilimga ega bo'lgan. Manbalarda ta'kidlanishicha, laduniy ilm insonning sa'y-harakati va riyozi natijasida, Alloh marhamati bilan nasib etadigan ilohiy bilimdir. Ushbu bilim uch turga: vahiy, ilhom va farosatga bo'linadi. Vahiy payg'ambarlarga, ilhom avliyolarga, farosat esa sof qalbli sufylarga beriladi.

Xalqimizning ma'naviy merosi nihoyatda boy va rang-barang bo'lib, uning shakllanishida tasavvuf ta'limoti alohida o'rin egallaydi. Tasavvuf ilmi asrlar davomida yurtimizda keng tarqalib, mukammal shakl topgan va o'z ta'sirini jamiyat hayotining ko'plab jabhalariga o'tkazgan. Xususan, tasavvuf tarixida Xojagon tariqati katta ahamiyatga ega bo'lib, uning asoschilaridan biri sifatida Xoja Abduxoliq G'ijduvoniy nomi alohida e'tirof etiladi.

Uning tasavvufdagi eng muhim yutuqlaridan biri — xufya (yashirin) zikr ta'limotidir. Ustozi Hamadoniydan o'zlashtirgan bu ta'limotni G'ijduvoniyanada mukammallashtirdi. Unga ko'ra, zikr qalban, jimlikda ado etilishi lozim, chunki baland ovoz bilan aytilgan zikrda shaytonning aralashuvi ehtimoli mavjud bo'ladi. Bu g'oya hadislarga asoslanib, chuqur diniy izohlar bilan mustahkamlangan. Masalan, u "Ash-shaytoni yajri min ibni odama majro ad-dam" hadisiga asoslanib, qalbdagi zikrni afzal deb bilgan.

Abduxoliq G'ijduvoniyaning hayoti va faoliyati haqida aniq ma'lumotlar ko'proq tasavvuf adabiyotlarida, xususan, Muhammad Tojiddin Tohir Eshon tomonidan yozilgan "Tazkirai Naqshbandiya" asarida uchraydi. Mazkur manbada Abduxoliq G'ijduvoniyaning shaxsiyati, ilmiy faoliyati va tasavvuf tarixidagi o'rni haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Tohir Eshon o'z asarida Abduxoliq G'ijduvoniyaning haqida gapirib, uni Xojagon tariqati asoschilaridan biri sifatida e'tirof etadi. U asarda nafaqat Abduxoliq G'ijduvoniyaning, balki uning ustozlari va izdoshlarining ham hayoti va ilmiy faoliyati haqida ma'lumot beradi. Tohir Eshon bu asarni yaratishda avvalgi olimlarning asarlaridan foydalangan va ular orqali tasavvuf tarixining uzviy davomiyligini ta'minlashga intilgan.

"Tazkirai Naqshbandiya" asarida Abduxoliq G'ijduvoniyaning va uning zamondoshlari haqida keltirilgan ma'lumotlar boshqa manbalarda kam uchraydi. Bu esa, mazkur asarning tarixiy va ilmiy ahamiyatini yanada oshiradi. Tohir Eshon Abduxoliq G'ijduvoniyaning haqida so'z yuritar ekan, uning faqatgina ilm-fan va tasavvuf rivojiga emas, balki butun jamiyatning ma'naviy hayotiga ta'sir ko'rsatganini ham ta'kidlaydi.

Xoja Abduxoliq G'ijduvoniyaning o'z ta'limotida nafaqat zohiriy ilmni, balki batiniy kamolotni ham targ'ib qilgan. U, insonning qalbini poklash, nafsin tarbiyalash va Allohga chin dildan yaqinlashish g'oyalarini asosiy tamoyil sifatida ilgari surgan. Uning o'gitlari va ta'limotlari keyinchalik Naqshbandiya tariqati shakllanishi va rivojlanishiga mustahkam zamin tayyorlagan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduxoliq G'ijduvoniyaning va tasavvuf: ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. — Toshkent, 2003. Mas'ul muharrir: O'zR FA akademigi M.M. Hayrullaev
2. Tohir Eshon, Tazkirayi Naqshbandiya, O'zbekiston Fanlar Akademiyasi Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondi, XVIII asr
3. Abduxoliq G'ijduvoniyaning va tasavvuf: ilmiy konferensiya ma'ruzalari tezislari. — Toshkent, 2003. Mas'ul muharrir: O'zR FA akademigi M.M. Hayrullaev
4. XojaI Jahon-Xoja Abdulkholiq G'ijduvoniyaning Nashrga tayyorlovchi, tarjimon va izoh mualliflari: Mahmudxon Mahdum Hasanxon Mahdum o'g'li, Gulbahor Muzaffar qizi. — Toshkent: "Navro'z", 1994
5. Xoja Abduxoliq G'ijduvoniyaning Vasiyatnomasi. — Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1993.